

## **METHODOLOGY OF AUDITING THE IMPAIRMENT OF LONG- TERM ASSETS OF AN ENTERPRISE**

**Senior lecturer of the department of “Accounting and Statistics” of Tashkent  
State University of Economics, Samarkand branch Ibayev Xo`jabe**

**Tashkent State University of Economics, Samarkand Branch**

**PhD student Ergashev Olloyor Furqat o`g`li**

**Abstract.** This article examines the theoretical and methodological aspects of auditing the impairment of fixed assets and intangible assets in enterprises. In the context of global economic instability, financial crises, and rapidly changing market conditions, proper accounting and auditing of asset impairment play a crucial role in ensuring the reliability and transparency of financial statements. The study analyzes internal and external factors influencing asset impairment, key directions of audit procedures, and sources of audit evidence. Particular attention is paid to the audit of fixed asset movements, valuation, revaluation, and inventory processes. Based on the requirements of International Financial Reporting Standards, especially IAS 36 “Impairment of Assets,” the sequence of audit procedures related to asset impairment is developed. As a result of the research, an audit plan, audit program, and working papers for auditing asset impairment are proposed. The findings of the study contribute to improving the quality of financial reporting, reducing audit risk, and enhancing audit practices in compliance with international standards.

**Key words.** fixed assets, intangible assets, asset impairment, audit procedures, audit evidence, internal control system, depreciation, financial statements, IFRS, IAS 36.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada korxonalarda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qadrsizlanishi auditining nazariy-uslubiy jihatlari tadqiq etilgan. Jahon iqtisodiyotidagi beqarorlik, moliyaviy inqirozlar va bozor sharoitlarining o‘zgaruvchanligi sharoitida aktivlar qadrsizlanishi jarayonlarini to‘g‘ri hisobga olish va auditdan o‘tkazish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aktivlar qadrsizlanishiga ta‘sir etuvchi ichki va tashqi omillar, auditorlik tekshiruvining asosiy yo‘nalishlari hamda auditorlik dalillarini shakllantirish manbalari tahlil qilindi. Shuningdek, asosiy vositalar harakati, ularni baholash, qayta baholash va inventarizatsiya jarayonlarining auditdagi o‘rni yoritib berildi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan 36-sonli “Aktivlar qadrsizlanishi” xalqaro standarti talablari asosida auditorlik amallarining ketma-ketligi ishlab chiqildi. Tadqiqot natijasida aktivlar qadrsizlanishi bo‘yicha auditorlik rejasi, auditorlik dasturi hamda ishchi hujjatlar taklif etildi. Olingan xulosalar korxonalarda moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish, auditorlik risklarini kamaytirish va xalqaro standartlarga mos audit amaliyotini joriy etishda amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar.** asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, aktivlar qadrsizlanishi, auditorlik tekshiruv, auditorlik dalillari, ichki nazorat tizimi, amortizatsiya, moliyaviy hisobot, MHXS, 36-IAS.

**KIRISH.** Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi va jahonning yetakchi davlatlari safiga qo‘shilishi borasida izchil iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini investisiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu esa o‘z navbatida korxonalar moliyaviy hisobotlarini barcha uchun tushunarli va ishonchli tayyorlanishi va taqdim etilishini talab etadi. Bu xususda Prezidentimiz Sh.Mirziyoev fikr yuritir ekan, quyidagilarni ta‘kidlaydi: “Barchamiz so‘zsiz tushunamiz, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o‘zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish eng avvalo iqtisodiy va moliyaviy organlarning faoliyati samaradorligiga

bog‘liqdir. Ular yaqin va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlashga doir strategik vazifalarni nafaqat ishlab chiqishi, balki amalga oshirishni ta‘minlashi zarur”<sup>1</sup>. Darhaqiqat, moliyaviy va iqtisodiy organlarning samarali faoliyati orqali sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va boshqa tarmoqlarni barqaror rivojlantirish mumkin. Keyingi yillarda davlat moliyaviy nazoratini kamaytirish, tadbirkorlarning faoliyatiga asossiz ravishda aralashishlarni cheklash maqsadida auditorlik faoliyatini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada mamlakatimizda auditorlik faoliyatining mustahkam normativ-huquqiy bazasi va o‘ziga xos milliy auditorlik xizmatlari bozori shakllantirildi, uni rivojlantirish uchun ta‘sirchan iqtisodiy omillar hamda soliq imtiyozlari qo‘llanilmoqda, auditorlik faoliyatini lisenziyalash tizimi jiddiy ravishda soddalashtirildi hamda erkinlashtirildi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalariga qaramasdan “...auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume‘tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to‘liq mos emas, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko‘nikmasining shakllanishini ta‘minlamayapti...”<sup>2</sup>. O‘tkazilayotgan islohotlar natijasida mazkur muammoning echimi sifatida “yirik davlat korxonalarida moliyaviy hisobot tuzish va audit o‘tkazishda xalqaro standartlarni joriy qilish” kabi muhim vazifalar belgilab qo‘yildi. O‘z navbatida, yuqoridagi vazifalar ijrosini ta‘minlashda auditorlik tekshiruvlarida ilg‘or xorij tajribasi va dasturiy vositalardan foydalanish, auditorlik faoliyatida xalqaro standartlardan keng foydalanishga oid chuqur izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

---

<sup>1</sup> Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. 27-bet.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3946-son Qarori. <http://lex.uz/docs/3914502>

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Aktivlar qadrsizlanishi hisobi va auditining nazariy-metodologik muammolari borasida xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular jumlasiga Hami Amiraslani, George E. Iatridis, Peter F. Pope, Djejms R. Xitchner, Stiven Xayden, Toe Adeladja, Tim Koller, Marc Goedhart, David Wessels M.B.Uxajova, A.M.Maryasin, T.R.Ismagilova, D.V.Tixomirov<sup>3</sup> kabi olimlarni kiritish mumkin. Respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan yaratilayotgan darslik, monografiya va o'quv qo'llanmalar, shuningdek, chop etilayotgan ilmiy maqola va tezislarda aktivlar va ularning ma'naviy eskirishi hisobi va auditining nazariy muammolari qisman o'rganilgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan M.K.Pardaev, I.N.Ismanov, R.Do'smurodov, K.B.Urazov, Sh.I.Ilxamov, N.F.Karimov, I.N.Qo'ziev, M.E.Po'latov, S.N.Tashnazarov, K.R.Xotamov, N.K.Rizaev, I.R.Davletov va boshqalar<sup>4</sup> ilmiy izlanishlar olib borganlar.

**Tadqiqot usullari.** Ushbu ishini bajarishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tanlab tekshirish, yoppasiga tekshirish, ekspertiza, hisob va hisobotda hamda

<sup>3</sup> Hami Amiraslani, George E. Iatridis, Peter F. Pope Accounting for asset impairment: a test for IFRS compliance across Europe/ Djejms R. Xitchner, Stiven Xayden Valuation for Financial Reporting: Fair Value, Business/ Toye Adeladja Accounting for Depreciation of Non-current Assets and Bookkeeping: Depreciation, Impairment and Revaluation of Non-current Assets/ Tim Koller, Marc Goedhart, David Wessels Valuation: Measuring and Managing the Value of Companies, 7th edition M.B.Uxajova/ Spravedlivaya stoimost i yee ispolzovanie v buxgalterskom uchete: sostoyanie i perspektivy/avtoreferat, A.M.Maryasin/Metodologiya priznaniya ubytkov ot obesseneniya nefinansovyx aktivov/Finansovyy jurnal / Financial journal №6 2018, T.R. Ismagilova/ Instrumentariy opredeleniya i priznaniya v otchetnosti obesseneniya nematerialnykh aktivov/dissertatsiya, D.V.Tixomirov/ Obessenenie aktivov: problemy otsenki i otrajeniya v finansovoy otchetnosti/ Finansovyy sektor ekonomiki.

<sup>4</sup>Do'smurodov R.D. Audit asoslari. Darslik.-T.:O'ME, 2003.612 b.,Ismanov I.N. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish masalalari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. Toshkent 2009 y., Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobini konseptual masalalari.-T.: Fan. 2005. 236 b., Qo'ziev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-T.: 2017., Po'latov M. Nomoddiy aktivlarning hisobi va auditini takomillashtirish masalalari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. Toshkent 2006 y., Po'latov M. Intellektual mulk hisobi. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2018 y., Rizaev N.K. Nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilini takomillashtirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2004 y., Rizaev N.K. Intellektual mulk objektlari hisobi va tahlilini tashkil etish metodologiyasi. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2019 y., I.Davletov. Agrar soxada intellektual mulk objektlari hisobi va auditi masalalari. (PcD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2018 y.

nazoratda qo'llaniladigan inventarizasiya, hujjatlashtirish va boshqa usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Uzoq muddatli moddiy aktivlar odatda kompaniyaning umumiy aktivlarining katta qismini tashkil qiladi. Uzoq muddatli moddiy aktivlarni tashkil etuvchi balans hisobvaraqlaridan tashqari, daromadlar to'g'risidagi hisobot moddalari (masalan, amortizatsiya xarajatlari, sotishdan olingan daromadlar yoki yo'qotishlar va qadrsizlanishlar) ham ushbu aktivlarga ta'sir qiladi. Auditni rejalashtirishda auditorlar boshqaruvning adolatli qiymat, aktivning foydali muddati, qutqaruv qiymati, amortizatsiya usuli va hisobdan chiqarishga oid sub'ektiv qarorlarini hisobga olishlari kerak. Uzoq muddatli moddiy aktivlarning ahamiyatiga qaramay, amalda bu schyotlar ko'pincha past yoki o'rtacha xavfli deb hisoblanadi, chunki balans qiymati va amortizatsiya xarajatlarini hisoblash oddiy va audit uchun osondir. Shunga qaramay, o'ziga xos xavflarni tushunmaslik va xavfni, shu jumladan PP&E bilan bog'liq bo'lgan xavfni shoshilinch ravishda past baholash jiddiy xatolarga, noto'g'ri xulosa chiqarishga va ba'zan firibgarlikka olib kelishi mumkin.

Asosiy vositalar auditining bosh maqsadi – korxonaga egaligida bo'lgan, korxonaga faoliyatida bir yildan ortiq foydalaniladigan va qayta sotish uchun mo'ljallanmagan moddiy va nomoddiy aktivlar harakati va ular bo'yicha amortizatsiya ajratmalari to'g'ri hisoblanganiga, ular qadrsizlanishini to'g'ri aks ettirilganligi, balans hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarda BHMS hamda MHXS talablariga mos aks ettirilganiga ishonch hosil qilishdan iborat.

Asosiy vositalar bo'yicha audit tekshiruvini o'tkazish jarayonida auditorning vazifalari quyidagilardan iborat:

❖ asosiy vositalar harakati va ular bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblashga nisbatan samarali ichki nazorat tizimining tashkil etilganligini tekshirish va uning sifatini baholash;

❖ buxgalteriya tizimi ma'lumotlari va moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan asosiy vositalar va haqiqatdan ham mavjud va ular bo'yichahisoblashishlar haqiqatdan ham ro'y berganligiga ishonch hosil qilish;


❖ asosiy vositalarning barchasi to'liq hisobga olinganligini tekshirish;

❖ asosiy vositalar harakati va ular bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda arifmetik amallar to'g'ri bajarilganligini o'rganish;

❖ balans hisobotida asosiy vositalar haqiqiy qiymatida aks ettirilganligini baholash;

❖ balans hisobotida debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'ri guruhlashtirilganligiga va agar zarurat bo'lsa, ular bo'yicha zaruriy qo'shimcha ma'lumotlar ilovalarda to'liq va to'g'ri keltirilganligiga ishonch hosil qilish.

Asosiy vositalar auditining asosiy vazifalariga muvofiq tekshiruvni yetti yo'nalishga ajratish mumkin:



**1-rasm. Asosiy vositalar auditining asosiy vazifalari.**

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish asosiy vositalar yuzasidan audit dalillariga asoslanadi. Asosiy vositalarni audit qilish vaqtida foydalaniladigan audit dalillari korxonada qabul qilingan hisob siyosatiga bog‘liqdir. Bular jurnal-orderli, memorial-orderli, soddalashtirilgan, kompyuterda ishlov uchun yo‘naltirilgan, shuningdek, qo‘llaniladigan registrlar ro‘yxati, ularning tuzilishi, ulardagi yozuvlar muntazamligi va yozuv usullari bilan belgilanadi. Lekin, asosiy vositalar bo‘yicha operatsiyalarni hisobga olish yuzasidan qanday shakl qo‘llanishiga qaramasdan ular dastlabki hisob hujjatlari quyidagi umumlashtirilgan idoralararo shakllarida rasmiylashtirishi lozimligini unutmaslik kerak.

Auditorlik tekshiruv chog‘ida korxonaning asosiy vositalar obektlariga mulkiy xuquqining talab darajasida rasmiylashtirilganligini isbotlash zarur.

Auditorga asosiy vositalar obektlarini yaratish, sotib olish, berish shartnomalari, zarur xollarda esa - konunchilikka muvofik oldi-sottini ruyxatga olish guvoxnomasi takdim kilinadi.

Asosiy vositalarning tug‘ri baxolanganligini aniklash asosiy vositalar mavjudligi va xarakterini tekshirish chog‘idagi muxim masalalardan biri xisoblanadi. Chunki mulk solig‘i buyicha byudjet bilan xisob-kitoblar, shuningdek korxonada faoliyatining moliyaviy natijalarini aks ettirish va xisobot tuzish shunga bog‘lik.

Auditor tekshiruv utkazishda asosiy vositalarni xisobga kabul kilish uchun asos bulgan dastlabki xujjatlarni (AV-1,AV-6 va boshka shakllar) jalb kiladi.

Asosiy vositalarni baxolashning tug‘riligini tekshirish yoppasiga (obektlar soni unchalik katta bulmaganda) yoki tanlab utkaziladi.

Asosiy vositalarni baxolash va dastlabki kiymatini aniklash amaldagi koidalarga muvofik amalga oshiriladi xamda asosiy vositalar obektlarini sotib olish usuliga bog‘lik.

Sungi yillarda asosiy vositalarni kayta baxolashni tekshirish muxim axamiyat kasb etmokda. 21-BHMSga muvofik korxonalarda asosiy vositalar obektlarini kayta

baxolash summalari 8531 – «Aktivlarni kayta baxolash buyicha tuzatishlar» schyotida aks ettiriladi. Bunday tekshiruv kayta baxolash natijalari rasmiylashtirilgan xujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Bunda auditor kuyidagilarni tekshirishi lozim: barcha asosiy vositalar tuligiga yoki ularning bir kismi kayta baxolanganligi; asosiy vositalar tarkibida xisobda turgan yer uchastkalari va tabiiy foydalanish obektlari kayta baxolanganligi; kayta baxolash kanday usullar yordamida utkazilganligi (indeksasiya kilish yoki xujjat bilan tasdiklangan bozor baxolari buyicha tug‘ridan-tug‘ri xisoblab utkazilishi va x.k.); bozor baxolarini tasdiklaydigan xujjatlarning mavjudligi; xisob-kitoblar tug‘riligini tanlab tekshirish; kayta baxolashdan sung eskirganlik darajasi uzgarganligi, kayta baxolash natijalarining inventar kartochkalarida aks ettirilganligi, kayta baxolash natijalarining buxgalteriya xisobi schyotlarida tug‘ri aks ettirilganligi, kayta baxolash natijalarining xisobot tuzishda xisobga olinganligi va shunga uxshashlar.

Asosiy vositalar mavjudligini tekshirish uchun analitik xisobni tashkil etish urganiladi. (bu xakda keyingi mavzuda batafsil ma’lumot beriladi). Shuningdek, auditor asosiy vositalar kanday saklanayotganligini va ularni inventarizasiya kilish natijalarini xam tekshirishi lozim.

Inventarizasiya materiallarini tekshirish auditorga auditorlik xatarlari va auditorlik amallarini tuzatish uchun, ichki nazorat natijalariga kanchalik tayanish mumkinligiga ishonch xosil kilishi uchun zarur.

Kuzatib chikish amallari yordamida asosiy vositalarga doir kuyidagi ma’lumot manbalarining uzaro mosligini tekshirish amalga oshiriladi:

- ✚ moliyaviy xisobot shakllarining asosiy vositalarga doir kursatkichlari;
- ✚ moliyaviy xisobot shakllari va bosh daftar kursatkichlari;
- ✚ Bosh daftar, sintetik va analitik xisob registrlari kursatkichlari.

Moliyaviy xisobotning asosiy vositalarga doir shakllari kursatkichlarini uzaro takkoslash natijalari 8-jadvalda kursatilgan shakl buyicha ishchi xujjatlar bilan rasmiylashtirilishi mumkin.

**1-jadval.**

**Moliyaviy hisobotning asosiy vositalarga doir xisobot shakllari  
ko'rsatkichlarining o'zaro mosligini tekshirish.**

Korxonalar ma'lumoti			Auditor ma'lumoti			Farq
No	Ko'rsatkichlar	Summa ming so'm	No	Ko'rsatkichlar	Summa ming so'm	
1	Asosiy vositalarning boshlangich qiymati: a) yil boshiga (010-satr, 3-ustun) b) yil oxiriga (010-satr, 4-ustun)	37073858 37052009	1	Asosiy vositalarning boshlangich qiymati: a) yil boshiga (010-satr, 3-ustun) b) yil oxiriga (010-satr, 4-ustun)	37073858 37052009	
2	Asosiy vositalarning eskirishi: a) yil boshiga (011-satr,3-ustun) b) yil oxiriga (011-satr, 4-ustun)	21361852 25707385	2	Asosiy vositalarning eskirishi: a) yil boshiga (011-satr,3-ustun) b) yil oxiriga (011-satr, 4-ustun)	21361852 25707385	
3	Asosiy vositalarning qoldiq qiymati:	15712006	3	Asosiy vositalarning qiymati:	15712006 11344624	

a) yil boshiga (012- satr,3-ustun)	11344624	a) yil boshiga (012- satr,3-ustun)		
b) yil oxiriga (012- satr, 4-ustun)		b) yil oxiriga (012- satr, 4-ustun)		

Keyinchalik Bosh daftar ma'lumotlarini sintetik va analitik xisob registrarlari kursatkichlari bilan solishtirish natijalari buyicha tekshiruv davom ettiriladi. Asosiy vositalar analitik xisobining inventar kartochkalari ma'lumotlari bilan takkoslanadi. Auditor asosiy vositalar guruxlari buyicha xarakat kursatkichlarining inventar kartochkalar buyicha analitik xisob ma'lumotlari bilan mosligini tekshirishi mumkin. Auditor tekshiruvning mazkur boskichida kuzatib chikish amallari yordamida dastlabki xujjatlar ma'lumotlarining analitik va sintetik xisob registrarlarida aks ettirilishini, Bosh daftar yozuvlarini tekshirdi. Natijada u asosiy vositalar xarakatiga doir muomalalar buxgalteriya xisobi schyotlarida tug'ri aks ettirilganligiga ishonch xosil kiladi.

Asosiy vositalar ob'ektlarini nazorat qilish va hisobga olish holatini tekshirish natijalariga ko'ra auditor nazorat samaradorligi to'g'risida xulosa chiqarishi mumkin.

Asosiy vositalar saqlanishining muhim shartlaridan biri – ularni sifatli inventarizatsiyadan o'tkazish. Shuning uchun, nazorat vaqtida inventarizatsiya to'liq va o'z vaqtida o'tkazilganligi, uning natijalari buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish lozim. Auditorga bu auditorlik riskini kamaytirish maqsadida korxonada o'tkazilgan inventarizatsiya natijalari to'g'riligiga qay darajada ishonch hosil qilish uchun kerak.

Auditor tomonidan qonunchilikka xilof ravishda bunyod etilgan yoki sotib olingan asosiy vositalarni tasdiqlovchi hujjatlar aniqlansa, auditorlik tekshiruvi asosiy vositalar qonunga xilof ravishda sotilganligi yoki talon- taroj qilinganligi

to'g'risidagi xabarga muvofiq o'tkazilayotgan bo'lsa, unda u to'satdan taftish o'tkazish bilan boshlanadi. Bunda auditor inventar varaqalari yoki inventar daftari mavjudligi va holati, sintetik va tahliliy hisob ma'lumotlari bir biriga muvofiqligini tekshiradi. Inventar varaqalarining ma'lumotlari inventar ro'yxati ma'lumotlari bilan, inventar ro'yxatining umumiy summasi 0100-sonli schyotlar guruhi ma'lumotlari bilan, ular o'z navbatida – balans ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

Solishtirish vaqtida asosiy vositalarning kamomadi yoki ortiqchaligi, uning sabablari va aybdor shaxslar hamda ushbu omillarning boshqa ko'rsatkichlarga ta'siri aniqlanadi (asosiy vositalar bo'yicha eskirish va mol-mulk bo'yicha soliq kam yoki ko'p hisoblanishi). Auditor asosiy vositalar joylarda mavjud ekanligini tanlab olish usuli bilan tekshirib aniqlaydi.

Kamomad aniqlangan holda, auditor moddiy javobgar shaxslardantushuntirish xati va kamomadlar qoplanishini talab qiladi. Ushbu kamomadlar auditorlik tekshiruvini o'tkazish vaqtida qoplanishi lozim.

Auditor asosiy vositalar saqlanishini tekshirganda ular moddiy javobgar shaxslarga birlashtirilganligi, yozma ravishda moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar tuzilganligini aniqlaydi.

Ijaraga olingan vositalar har bir ijaraga beruvchi bo'yicha alohida inventarizatsiya ro'yxatida aks ettiriladi va unda belgilangan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha ravishda ijara beruvchining nomi va ijara muddati ko'rsatiladi.

## 2-jadval

### Asosiy vositalar auditida tekshiriladigan buxgalteriya o'tkazmalari

T/r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit


1.	Qurib bitkazilgan va foydalanishga topshirilgan obektlarning asosiy vositalar tarkibiga o'tkazilishi	0110—0190	0810
2.	Asosiy vositalarning haqiqiy tannarxi bo'yicha xarid qilinishi (boshlang'ich qiymati)	0110—0190	0820
3.	Moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalarni uzoq muddatli ijara shartnomasi tugagandan keyin asosiy vositalar tarkibiga qabul qilinishi	0110—0190	0310
4.	Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulush (pay) sifatida kiritgan yoki aksiyalarga to'lov sifatida kelib tushgan asosiy vositalarning kirim qilinishi	0110—0190	4610
5.	Asosiy vositalarning tekinga kelib tushishi	0110—0190	8530
6.	Asosiy vositalarning alohida bo'linmalar, shu'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan kelib tushishi	0110—0190	6110, 6120
7.	Qo'shimcha qurish, uskunalar o'rnatish, modernizatsiya, rekonstruksiya qilish va boshqa sifat jihatdan yaxshilash natijasida asosiy vositalar boshlang'ich qiymatining ko'payishi	0110—0190	0890
8.	Erni obodonlashtirish bilan bog'liq xarajatlarni asosiy vositalar tarkibiga kiritish	0111	0850
9.	Moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalarni va obodonlashtirish bilan bog'liq xarajatlarni asosiy vositalar tarkibiga kiritish	0112	0860
10.	Ishchi va mahsuldor hayvonlarning asosiy vositalar tarkibiga kirim qilinishi	0170	0840

11.	Asosiy vositalarni qayta baholash:		
	a) qiymatining oshirilishi	0110—0199	8510
	b) qiymatining kamaytirilishi	8510	0110—0199
12.	Tugatish, sotish, tekinga berish, ustav kapitaliga ulush sifatida berish, moliyaviy ijaraga berish, kamomad yoki buzilish natijasida asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini hisobdan chiqarish	9210	0110—0190
13.	Alohida bo‘linmalarga asosiy vositalarning berilishi	4110	0110—0190
14.	Qonunchilikda belgilangan tartibda konservasiya qilingan asosiy vositalar	0199	0110—0190

Asosiy vositalar harakatining auditini o‘tkazishda asosiy vositalar qabul qilinishi hisobi bo‘yicha dastlabki hujjatlar to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi hamda mashina va uskunalarning texnik pasportlaridagi yozuvlar tekshiriladi. Birinchi navbatda asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini tuzgan komissiya a‘zolarining tegishli bilimga egaligi aniqlanadi. Uning tarkibiga inventarizatsiya ob‘ektlari bilan mukammal tanish bo‘lgan mutaxassislar kiritilishi lozim. Asosiy vositalar har bir inventarizatsiya ob‘ektiga alohida tuziladigan qabul qilish-topshirish dalolatnomalariga asosan kirim qilinadi. Auditorning vazifasi kirim hujjatlarida inventar ob‘ektning barcha rekvizitlari va texnik tavsiflari (barpo etilgan yili, ishlab chiqargan zavod raqami, quvvati) qayd etilganligi, uning to‘liq jihozlanganligi va ishga yaroqli ekanligini tekshirishdan iborat. Korxonaga avval ishlatilgan inventar ob‘ektlari olingan holda,

auditor ularning texnik pasportlariga asoslanib, yoki lozim bo‘lsa, amalda ko‘rib chiqib, eskirish to‘g‘ri hisoblanganligini tekshiradi.

Iqtisodchi olim M.Sayfullaev aktivlarning qadrsizlanish jarayonini auditdan o‘tkazishda auditor tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘ladigan amallar ketma-ketligi quyidagicha keltirgan.




## **2-rasm. Aktivlarning qadrsizlanishi bilan bog‘liq jarayonni auditdan o‘tkazish ketma-ketligi<sup>5</sup>**

Mazkur jarayonlarni tekshirishda auditor yuqorida qayd etib o‘tilgan 500-sonli «Auditorlik dalillar» nomli xalqaro standartida keltirilgan audit amallaridan foydalangan holda auditorlik dalillarini to‘playdi.

Iqtisodchi olim M.Sayfullaev aktivlarning qadrsizlanish bilan bog‘liq auditorlik dalillari manbalarini quyidagicha keltirgan.

<sup>5</sup> M.Sayfullaev. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda aktivlarning qadrsizlanishi hisobi va auditini takomillashtirish (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2023 y.



### 3-rasm. Aktivlarning qadrsizlanishi bilan bog‘liq auditorlik dalillari manbalari.<sup>6</sup>

Korxonada aktivlarning qadrsizlanish jarayonini tekshirish davomida auditor tomonidan quyidagilarga, ya’ni: korxonada aktivlarning qadrsizlanishi bilan bog‘liq ichki nazorat tizimini qay darajada muvofiq ishlayotganligini tekshirilishiga; aktivlarning qadrsizlanishini vujudga keltiruvchi ichki va tashqi omillar mavjudligiga; aktivlarning qadrsizlanishni jarayonini testlash orqali aniqlanganligiga; qadrsizlanishdan ko‘rilgan zararlar va ular bilan bog‘liq jarayonlarni buxgalteriya hisobining dastlabki hujjatlarida to‘g‘ri aks ettirilganligiga; qadrsizlanish jarayonini qayd etib boruvchi boshlang‘ich hisob hujjatlari va moliyaviy hisobotlarning o‘zaro bir-biriga muvofiq kelishiga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Zero, aktivlarning qadrsizlanishi bilan bog‘liq jarayonlar korxonaning moliyaviy holatiga va moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Auditor tomonidan ushbu jarayonlar alohida tekshirilmay, yetarli baho berilmasligi korxonaning moliyaviy hisobotlaridagi mavjud xato va kamchiliklar sonini oshirishi va natijda mazkur hisobotlardan foydalanuvchilarga noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etilishi natijasida katta zarar yetkazilishi mumkin.

36-IAS aktivlar qadrsizlanishini tekshirishda malakali baholovchilar va tashqi ekspertlardan foydalanishni talab qilmaydi. Operatsion tizimni tekshirish uchun

<sup>6</sup> M.Sayfullayev. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda aktivlarning qadrsizlanishi hisobi va auditini takomillashtirish (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2023 y.

kompaniyaning ichki xodimlaridan - texnik mutaxassislardan, xaridlar, marketing bo'limlari xodimlaridan va boshqalardan komissiya tuzilishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Biz xalqaro standartlar asosida aktivlar qadrsizlanishi auditini nazariy-metodologik muammolari borasida olib borgan tadqiqotimiz davomida quyidagi xulosalarni qildik:

**1.** Hozirgi o'zgaruvcha jahon iqtisodiyoti va moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar kabi holatlar dunyo iqtisodiyotida misli ko'rilmagan darajada noaniqliklarni keltirib chiqarib, buning oqibatida iqtisodiy faoliyat ko'lamlarining keskin qisqarishi, xususan, xo'jalik yurituvchi subektlar aktivlarining qadrsizlanish jaryonlarini kuchaytirmoqda.

**2.** 36-sonli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Aktivlar qadrsizlanishi" standartida qadrsizlanishga quyidagicha tarif keltirilgan. Qadrsizlanishdan zarar - bu aktiv yoki pul mablag'larini hosil qiluvchi birlik balans qiymatining uning qoplanadigan qiymatidan ortgan summasidir.

**3.** Tadqiqotimiz natijasida aktivlar qadrsizlanishi bo'yicha auditorlik manbalari, auditorlik rejasi, auditorlik dasturlari hamda asosiy vositalar auditiga doir ishchi xujjatlar shaklini ishlab chiqdik.

**4.** Tadqiqot obekti bo'lgan "Samarqanddonmaxsulotlari" AJning hisob siyosatiga aktivlarni qadrsizlanishi bo'yicha 9440 "Tovar-moddiy zaxiralar qadrsizlanishidan zarar", 9450 "Asosiy vositalar qadrsizlanishidan zarar" hamda 9460 "Nomoddiy aktivlar qadrsizlanishidan zarar" ishchi schotlar kiritish taklif etildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Abdullaev R.A. Buxgalterskiy uchet i audit. Uchebnoe posobie. –Tashkent, 2011;
2. Abdukarimov B.A. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik.// -T.: Fan, 2005. -288 b.;

3. Assel G. Marketing: prinsipi i strategiya : uchebnik dlya vuzov. M. : INFRA-M, 2001,s.337
4. Audit. O'quv qo'llanma /To'laxo'djaeva M.M., Jo'raev T.I, Gulyamova F.G.larning umumiy tahriri ostida. – T.: BAMA nashr. Markazi. 1 tom
5. Булыга R.P. Metodologicheskie problemy uchyota, analiza i audita intellektualnogo kapitala. Avtoreferat dissertatsii d.e.n. Moskva: - 2005g.
6. Dustmurodov R.D. Audit asoslari. Darslik. : T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003;
7. Davletov I. Agrar sohada intellektual mulk ob'ektlari hisobi va auditi masalalari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. 2018 y.
8. Ivanov, A. Ye. (2012). Vnutrenne sozdannaya delovaya reputatsiya kompanii kak uslovnnyy aktiv. *Mejdunarodnyy buxgalterskiy uchet*, (26), 28-33.
9. Ismanov I.N. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish masalalari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi.Toshkent 2009 y.
10. Isxakova S.A. Sfera uslug v Uzbekistane: tendensii i faktory razvitiya.// *Biznes-Ekspert*. – Toshkent, №10, 2017. – B. 64-68 (08.00.00; №12).
11. Kuvaldina, T. B., & Lapin, D. R. (2013). Diskontirovannaya (privedennaya) stoimost v otsenke aktivov i obyazatelstv. *Auditorskie vedomosti*, (11), 63-71.